



O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINING XUSUSIYATLARI

Mamajonova Gulsanam Anvarjon qizi

25.130-guruh

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi mustaqil so'z turkumlarining grammatik, semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish so'z turkumlarining tuzilishi, shakllanish usullari hamda gapdagi vazifalari misollar asosida yoritib beriladi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tavsifiy metoddan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda mustaqil so'z turkumlari umumiy kategoriyalarga ega bo'lsa-da, ularning grammatik ifodalanishi tillarning tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik hamda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil so'z turkumlari, o'zbek tili, ingliz tili, grammatika, qiyosiy tilshunoslik.*

KIRISH

Til insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, u tafakkur va madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Har bir til o'ziga xos grammatik tizimga ega bo'lib, mazkur tizim orqali fikr ifodalanadi. Grammatikaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan so'z turkumlari so'zlarning ma'nosi, shakli va nutqdagi vazifasini belgilaydi. Mustaqil so'z turkumlari esa lug'aviy ma'noga ega bo'lib, gapning asosiy bo'laklari sifatida xizmat qiladi.

O'zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning grammatik tuzilishida sezilarli farqlar mavjud. O'zbek tili agglutivativ til bo'lsa, ingliz tili analitik til hisoblanadi. Shu bois mazkur tillardagi mustaqil so'z turkumlarni qiyosiy o'rganish tilshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi mustaqil so'z turkumlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

So'z turkumlari masalasi tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov kabi olimlar tomonidan so'z turkumlari tizimi atroflicha o'rganilgan. Ingliz tili grammatikasi esa M.Swan, R.Murphy va D.Crystal kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Qiyosiy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, universal grammatik kategoriyalar mavjud bo'lsa-da, ularning har bir tilda namoyon bo'lishi turlicha kechadi. Biroq o'zbek va ingliz tillaridagi mustaqil so'z turkumlarini maxsus qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy metod asosiy usul sifatida tanlandi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va ingliz tillari grammatikasiga oid ilmiy manbalar hamda adabiy til namunalari tahlil qilindi. Har bir mustaqil so'z turkumi alohida ko'rib chiqilib, ularning grammatik shakllari va sintaktik vazifalari aniqlashtirildi hamda qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Otlar

O'zbek va ingliz tillarida otlar shaxs, narsa, joy va mavhum tushunchalarni bildiradi. O'zbek tilida otlar kelishik, ko'plik va egalik kategoriyalariga ega bo'lib, qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Masalan, kitoblarimizda so'zida ko'plik, egalik va o'rin-payt kelishigi ma'nolari mujassam. Ingliz tilida esa otlar asosan son va egalik shakliga ega bo'lib, grammatik ma'no ko'proq so'z tartibi orqali aniqlanadi.

Sifatlar

Har ikkala tilda sifatlar predmetning belgi-xususiyatini ifodalaydi. O'zbek tilida sifatlar darajalar orqali ifodalanadi: katta – kattaroq – eng katta. Ingliz tilida esa bu holat -er, -est qo'shimchalari yoki more, most yordamchi so'zlari orqali amalga oshiriladi.

Sonlar

Sonlar miqdor va tartibni bildiradi. O'zbek tilida sonlar qo'shimchalar qabul qilishi mumkin, ingliz tilida esa ular asosan aniqlovchi vazifasida kelib, o'zgarmas hisoblanadi. Masalan, first-birinchi, second-ikkinchi kabilar.

Olmoshlar

Olmoshlar ot o'mida qo'llanib, nutqni ixchamlashtiradi. O'zbek tilida olmoshlar kelishik va egalik shakllarida o'zgaradi, ingliz tilida esa ega va to'ldiruvchi shakllarining farqlanishi mavjud (he – him).

Fe'llar

Fe'l gapning markaziy bo'lagi bo'lib, harakat va holatni bildiradi. O'zbek tilida fe'llar zamon, mayl va shaxs-son jihatidan boy tizimga ega. Ingliz tilida esa

zamon-aspekt tizimi rivojlangan bo'lib, ko'plab shakllar yordamchi fe'llar orqali yasaladi. Misol qilib aytganda, did-bajardi, walk-yurmoq, is drawing-chizyapti bunda "is" so'zi yordamchi fe'l hisoblanadi.

Ravishlar

Ravishlar harakatning tarzini, paytini va darajasini bildiradi. O'zbek tilida ravishlar ko'pincha shaklan o'zgarmaydi, ingliz tilida esa ko'pchilik ravishlar -ly qo'shimchasi orqali hosil qilinadi. Masalan, quickly-tez, loudly-baland ovoz singari.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek va ingliz tillaridagi mustaqil so'z turkumlari umumiy grammatik kategoriyalarga ega bo'lsa-da, ularning ifodalanish usullari tilning tipologik xususiyatlariga bog'liq holda farqlanadi. O'zbek tilida



grammatik ma'no asosan qo'shimchalar orqali ifodalansa, ingliz tilida so'z tartibi va yordamchi birliklar muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslikni rivojlantirish hamda til o'rganish jarayonini samaraliroq tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi. — Toshkent: Fan, 2018.
2. Mahmudov N. O'zbek tili grammatikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. O'rinboyev B. va Qodirov A. (2015) Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya. Toshkent: Fan.
4. Hojiyev A. (2002) O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: Fan.
5. Swan M. Practical English Usage. — Oxford: Oxford University Press, 2016.
6. Murphy R. English Grammar in Use. — Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018.
8. Payne, T.E. (1997). Describing Morphosyntax. Cambridge University Press.